

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘kon**lardagi narxlar inobatga olinmagan).*


Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2022- yil 25- mart kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
45 000 so'mdan 70 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (45 000 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Guliston shahri "Guliston dehqon bozori", Yangiyo'l shahrining "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori", Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori", "Farhod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 70 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorlarda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 50 000 – 55 000 so'm oralig'ida sotilmoqda.



Qo'y go'shti
55 000 so'mdan 80 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi (55 000 so'm) kuzatuv natijasiga ko'ra, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori" va Navoiy shahrining "Saxovat" bozoridagi arzonlashtirilgan rastalarda ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Qo‘yliq dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 80 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, ushbu bozorlarda qo‘y go‘shini minimal 58 000 – 65 000 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.



Kartoshka

2 700 so‘mdan 8 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”da tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (2 700 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” hamda “Mirobod dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (8 000 so‘m) qayd etildi. Ushbu bozordagi arzonlashtirilgan rastalarda sotilayotgan kartoshkani minimal 3 400 - 3 500 so‘mdan ham xarid qilish mumkin.

Piyoz

2 000 so‘mdan 5 000 so‘mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”, Navoiy shahrining “Saxovat” bozori, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori” Termiz shahrining “Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori” va Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da (2 000 so‘m) ro‘yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” hamda “Mirobod dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (5 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorda piyozni minimal 2 000 – 2 500 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi

1 000 so‘mdan 5 000 so‘mgacha (kg)

Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Termiz shahrining “Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”da (1 000 so‘m) qayd etilgan. Shuningdek, mazkur bozorda sabzini maksimal 3 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi mahsulotining maksimal narxi Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Oloy dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da 5 000 so‘m darajasida qayd etilgan. Ushbu bozorlarda sabzining minimal narxi 1 500 - 3 000 so‘mni tashkil etdi.

Tuxum

6 000 so‘mdan 15 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Yangiyo‘l shahrining “Ixtisoslashgan Yangiyo‘l shahar dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (6 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Eski jo‘va dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 15 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 8 000 - 10 000 so‘mni tashkil etgan.



Guruch

5 000 so‘mdan 20 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Termiz shahrining “Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori”da (“Nukus-2” va boshqa mahalliy navli guruchlar, 5 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da 20 000 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorda guruchning minimal narxi 7 000 so‘mni tashkil etgan.

O‘simlik yog‘i

13 600 so‘mdan 25 000 so‘mgacha (litrl)



O‘simlik yog‘ining kuzatuv natijasiga ko‘ra, minimal narxi Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori” da (mahalliy paxta yog‘i 13 600 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozordagi xususiy tadbirkorlar rastalarida paxta yog‘ini 20 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Eski jo‘va dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 25 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda kungaboqar yog‘ini minimal 16 500 – 19 000 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.



Shakar

8 500 so‘mdan 14 000 so‘mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Nukus shahrining “Nuskus dehqon bozori”, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”, Navoiy shahrining “Saxovat” bozori, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori” da arzonlashtirilgan rastalarda (8 500 so‘m) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Yangiyo‘l shahrining “Ixtisoslashgan Yangiyo‘l shahar dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori” va “Qo‘yliq dehqon bozori”da (14 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorda shakarni minimal 8 500 – 9 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***

2022- yil 25- mart holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	45000	55000	3500	2500	1500	8000	5000	16500	8500
		max	68000	65000	6500	3500	3000	10000	12000	21000	12000
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	55000	65000	2700	2000	2000	7000	6500	14000	8500
		max	68000	75000	4500	3000	3000	11000	10000	20000	9000
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	56000	55000	3200	2500	2000	7000	5500	16000	9000
		max	65000	62000	5500	4000	3500	10000	13500	21500	12000
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	55000	60000	3000	2500	2000	9000	5000	15000	10000
		max	65000	68000	4000	3000	2600	10000	13000	22000	10000
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	65000	3000	2800	2200	7800	6000	17000	10500
		max	65000	72000	3200	3500	3000	9000	12000	23000	11000
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	46000	55000	3000	2000	2000	7000	7000	15000	8500
		max	65000	60000	4000	2400	2500	10000	12000	22000	9000
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	55000	70000	3300	2000	2000	7000	6500	14000	9000
		max	62000	75000	5000	3000	3000	10000	15000	20000	10500
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	55000	73000	3300	2600	2500	8800	7000	16000	11000
		max	68000	75000	5000	3000	3000	12000	13000	23000	13000
9.	Termiz shahar "Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	55000	60000	3000	2000	1000	8000	5000	16000	10000
		max	70000	75000	4500	3500	3000	10000	14000	22000	12000
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	50000	65000	3000	3000	2000	7000	5000	14000	8500
		max	70000	80000	5000	3600	3000	11000	14000	22000	9000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	50000	70000	3500	2500	2000	10000	6500	16666	9000
		max	65000	75000	5000	4500	3500	14000	14000	23000	14000
12.	Yangiyo'l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori”	min	55000	62000	3800	2500	2500	6000	6000	15000	9000
		max	70000	75000	5000	3500	4000	10000	14000	24000	14000
13.	Farg‘ona shahar “Farg‘ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	55000	65000	4000	3000	2000	9000	6000	16000	11500
		max	68000	75000	5000	3500	3000	11000	13000	21500	12500
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	50000	70000	4000	3500	1500	7000	5000	17000	8500
		max	65000	70000	6000	4500	2500	11000	14000	24000	12000
15.	Toshkent shahar “Eski jo‘va dehqon bozori”	min	49500	60000	3300	2300	2500	8000	6000	16500	9000
		max	67000	80000	5000	3500	5000	15000	15000	25000	14000
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	55000	60000	3500	2500	2500	10000	8000	15000	9000
		max	68000	80000	8000	5000	5000	15000	16000	25000	13000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	51000	58000	3500	2500	3000	8000	7000	14600	8500
		max	70000	78000	6500	3500	5000	14000	16000	24000	14000
18.	Toshkent shahar “Qo‘yliq dehqon bozori”	min	49500	60000	3400	2500	2000	7000	5500	15000	9000
		max	69000	80000	6000	4500	4000	12000	16000	24000	14000
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	50000	58000	3400	2000	1500	9000	7000	13600	9000
		max	70000	80000	8000	5000	5000	14000	20000	24000	12000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.